

0‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida madaniyat va san‘at sohasi oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilaridan iborat tinglovchilarning malakaviy attestatsiyasi o‘tkazildi

0‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida madaniyat va san‘at sohasi oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilaridan iborat tinglovchilarning malakaviy attestatsiyasi o‘tkazildi.



Mazkur malakaviy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son qaroriga muvofiq o'tkazildi.



□ Unda Attestatsiya komissiyasi raisi, professor Nodirbek Sayfullayev, komissiya raisi o‘rinbosari, markaz direktori Abror Porsoyev, shuningdek, komissiya a‘zolari: “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasida professori, Sarvinoz Qodirova, “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasida professori, O‘razali Toshmatov, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasida professori, Rifatilla Qosimov, O‘zbekiston davlat konseratoriyasi “Talim sifatini nazorat qilish bo‘lim boshlig‘i, professor, Abdupattax Abdugapparov hamda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “Xoreografiya jamoalari rahbari” kafedrasida dotsenti Gulshod Abdiyeva ishtirok etdilar.



Nodirbek Sayfullayev himoya arafasida turgan pedagoglarga muvaffaqiyat tilar ekan, ularning ilmiy izlanishlari va amaliy tajribalari kelgusida ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishini ta'kidladi.



Shundan so`ng Tarmoq markazida rejaga muvofiq "Vokal San'ati" va "Texnogen san'ati" yo'nalishida bir oy davomida o'z malakalarini oshirgan jami 25 nafar tinglovchining malakaviy

attestatsiya ishi komissiya a'zolari tomonidan birma-bir tinglandi.



Malakaviy himoya yakunida barcha tinglovchilar muvaffaqiyatli baholandi. Kelgusida ham izlanishlarini chuqurlashtirish, o'z ijodiy faoliyatlarini takomillashtirish, shuningdek, san'atimiz va madaniyatimiz rivojiga munosib hissa qo'shishlari yuzasidan tavsiya-tilaklar bildirildi.